

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti doktoranti (DSc), filologiya
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Asqarova Shaxnoza
Kamolidinovnaning "Alpomish" dostoni inglizcha tarjimasining
lingvomadaniy jihatlari" mavzusidagi monografiyasiga
TAQRIZ**

Bugungi kunda barcha sohalarida bo'lganidek, tarjimashunoslikda ham keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. "Alpomish" dostoni inglizcha tarjimasining lingvomadaniy jihatlarini yoritishga qaratilgan mazkur monografik tadqiqot shunday ilmiy ishlar sirasiga kiradi.

Monografiyaning birinchi bobida "Alpomish" dostonini o'rganishning nazariy jihatlarini yoritilgan bo'lib, unda o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan bo'lmish ushbu dostonning o'zbek va dunyo olimlari tomonidan tadqiq qilinishi, jahon tillari, jumladan, ingliz, rus, nemis tillariga o'girilishi kabi masalalar tahlilga tortilgan. Ishning ikkinchi bobida "Alpomish" dostoni inglizcha tarjimasidagi leksik-semantik guruhlarning lingvomadaniy tadqiqi xususida fikr yuritilgan. Unda onomastic leksemalar tarjimasi, zoonimik va fitonimik leksemalarning inglizchada berilishi misollar yordamida keng yoritilgan bo'lib, ularning statistik tahlil natijalari jadvallarda aks ettirilgan. Tadqiqotning uchinchi bobida "Alpomish" dostonidagi stilistik vositalar tarjimasi sirasiga kiruvchi takror, metafora, metonimiya, o'xshatish kabilarning inglizcha tarjimada qanday berilganligi, ularning tarjima muammolari, badiiy matndagi funksiyasiga oydinlik kiritilgan.

Yuqorida ta'kidlanganlar tarjimaning lingvomadaniy jihatlaridagi tarjima muammolarini tadqiq qilishda muhim uslubiy ishlanma sifatida monografiyaning afzalligini aks ettiradi. Bu ish keng ko'lamli bo'lib, uning amaliy ahamiyati ma'lumotlarni qo'llash, amaliy va nazariy mashg'ulotlar uchun ilova yaratishda foydali manba bo'lish imkoniyati bilan belgilanadi. Unda asliyat va tarjima asarlarining lingvomadaniy xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, ingliz va o'zbek tillaridagi nazariy jihatlar bilan asoslanganligi, milliy xos so'zlarning tadqiqiga oid umumiy qarashlar jahon va o'zbek olimlari talqinida misollar bilan batafsil yoritilganligi bilan ahamyatlidir.

Mazkur monografiyadan lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik fanlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalari talabalari va mustaqil o'rganuvchilar foydalanishlari mumkin. ushbu monografiyani chop etishga tavsiya qilaman.

Taqrizchi:



Rustam Sharipov

*ShU Tarjimashunoslik, tilshunoslik va
qaro jurnalistika oliy maktabi dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc)*